

11. Accenture invests in QuSecure for quantum-safe cybersecurity. (2025, January 22). *Investing.com*. Retrieved from <https://uk.investing.com/news/company-news/accenture-invests-in-qusecure-for-quantumsafe-cybersecurity-93CH-3884420>

12. National Institute of Standards and Technology. (n.d.). Post-quantum cryptography. Retrieved March 13, 2025, from <https://csrc.nist.gov/projects/post-quantum-cryptography>

O'ZBEKISTONDA FUTBOL KLUBLARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzayev Ulugbek
ulugbek_mirzaev@mail.ru

O'zbekistonda futbol sportning eng ommaviy va mashhur turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda professional futbol klublari soni ortib bormoqda. Biroq ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, futbolning barqaror rivojlanishi va xalqaro maydondagi muvaffaqiyati bevosita uning moliyaviy modeliga bog'liq.

Mamlakatimizda professional futbol klublari davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan bo'lsa-da, bu tizim samaradorligi pastligi va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlab bera olmasligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, xususiy sektorning jalb qilinishi, tijorat imkoniyatlarining kengaytirilishi va markazlashgan moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi masalalari o'ta muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda futbol klublarining asosiy moliyaviy manbalari davlat budgeti, mahalliy hokimiyat organlari mablag'lari, homiylik shartnomalari va reklama daromadlaridan iborat (statistik ma'lumotlarga asosan, Superliga va Pro-liga klublarining 85% dan ortig'i davlat tomonidan moliyalashtiriladi). Biroq, teletranslyatsiya huquqlaridan keladigan daromadlar, klub mahsulotlari savdosi va stadion infratuzilmasidan tushadigan foyda hali yetarlicha rivojlanmagan.

Misol uchun, "Paxtakor" klubi raisi Jahongir Ortiqxo'jayev ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda "Paxtakor"ning yillik byudjeti 100 milliard so'm (taxminan 7,1 million yevro) bo'ldi va klub foyda keltirmaydi, balki to'liq tashqi mablag'larga bog'liq. Solishtirish uchun O'zbekiston Superligasining ba'zi qatnashchilarining 2024-yildagi byudjetlarini futbol klublari miqyosida qaraydigan bo'lsak, "Nasaf" (Qarshi) — 10,55 mln. yevro, "Navbahor" (Namangan) — 8,18 mln. yevro, AGMK (Olmaliq) — 7,10 mln. yevro, "Neftchi" (Farg'ona) — 6,65 mln. yevro va "Bunyodkor" (Toshkent) — 5,90 mln. yevroni tashkil qiladi.

Jahon futbolida moliyalashtirishning muvaffaqiyatli modellari klublarning daromadlarini diversifikatsiya qilishga asoslanadi. Masalan, Angliya Premyer Ligasi, Ispaniya La Ligasi va Germaniya Bundesligasi klublari o'z daromadlarini

televizion huquqlarni sotish, homiylik shartnomalari, stadionlardan tushadigan mablag'lar va savdo markazlari orqali ta'minlaydi. O'zbekistonda ham futbolni rivojlantirish uchun shunday modelni shakllantirish zarur.

O'zbekistonda futbol klublarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri ularni **xususiy lashtirishdir**. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda ko'plab futbol klublari davlat tashkilotlari yoki yirik davlat kompaniyalari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. "Qizilqum"ni - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati", "Bunyodkor"ni - "O'zbekneftgaz", "Andijon"ni - "O'zavtosanoat", "Mash'al"ni - "O'zmilliyybank", AGMKni - "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" moliyalashtiruvchi tashkilotlar sanaladi.

Bu esa ularga moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydigan tijorat modelini yaratishga imkon bermaydi. Xususiy sektor vakillarining futbol klublariga sarmoya kiritishiga shart-sharoit yaratish orqali, klub boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni oshirish mumkin. Xususiy futbol klublari investitsiyalarini jalg qilish, homiylar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish va infratuzilmani rivojlantirish orqali o'z mablag'larini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, xususiy lashtirish jarayoni qonunchilik asosida tartibga solinishi, klublarning sport natijalari va moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik aniq belgilanib, har xil korrupsiyaviy xavf-xatarlardan xoli bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, **tijoratlashtirish** orqali futbol klublarining moliyaviy holatini yaxshilash mumkin. Juhon futbolida eng daromadli manbalardan biri teletranslyatsiya huquqlarini sotish hisoblanadi. Angliya Premyer Ligasi, Ispaniya La Ligasi va Germaniya Bundesligasi kabi yirik ligalar milliardlab dollar miqdoridagi televide niye shartnomalari orqali katta daromad oladi.

Juhon futbolida televizion huquqlardan yillik daromadlar:

Angliya, Premyer Liga - 5,9 mlrd. \$

Ispaniya, La Liga - 2,9 mlrd. \$

Germaniya, Bundesliga - 1,5 mlrd. \$

Italiya, Seriya A - 1,4 mlrd. \$

Fransiya, Liga 1 - 1,2 mlrd. \$

O'zbekiston, Superliga - 0,1 million \$

O'zbekiston futbolining translyatsiya huquqlaridan tushadigan daromadi juda kam bo'lib (Superliga bir yilda bor-yo'g'i 100 ming dollar topadi), xalqaro tajribaga asoslanib, bu sohada ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun liga o'yinlarining sifati va jozibadorligini oshirish, xalqaro auditoriyani jalg qilish va mahalliy hamda xalqaro telekanallar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish zarur bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, futbol klublarida marketing va merchandayzing, ya'ni o'z mahsulotlarini sotish orqali ham daromad ko'rsa bo'ladi. Klub futbolkalari, aksessuarlar, suvenirlar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish orqali futbol klublari barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat — **markazlashgan moliyalashtirish** tizimini joriy etishdir. Bunday tizim futbol klublari orasida moliyaviyadolatni ta'minlashga

yordam beradi. Masalan, Angliya Premyer Ligasi televideniye huquqlaridan tushgan daromadni barcha klublar orasida deyarli teng taqsimlaydi (turnir jadvalida egallagan o'rinaliga qarab, APL klublarining bu yo'nalishdagi kirimlari biroz farqlanadi). Bu esa, hatto kichik jamoalarga ham katta moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkonini beradi. O'zbekiston futbolida ham markazlashgan moliyaviy tizim joriy qilinsa, kichik klublarning rivojlanishiga va liganing umumiy saviyasining oshishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun **muayyan muammolarni hal qilish** lozim. O'zbekistonda xususiy investorlarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi choralar qo'llanilishi kerak. Xususiy investorlar uchun barqaror va xavfsiz sarmoya muhiti yaratilmasa, futbol sohasiga investitsiyalar jalb qilish qiyin bo'ladi.

Shuningdek, futbol klublarining moliyaviy shaffofligini oshirish zarur. Klublarning daromad va xarajatlari ochiq bo'lishi, homiylar va investorlar uchun ishonchli tizim yaratilishi kerak.

O'zbekiston futboli xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishi uchun infratuzilmaviy investitsiyalar ham zarur. Zamonaviy stadionlar, mashg'ulot bazalari va futbol akademiyalarining qurilishi nafaqat mahalliy futbolchilarning rivojlanishiga, balki xalqaro o'yinchilarni jalb qilishga ham imkon yaratadi. Misol uchun, Qatar va Saudiya Arabistonni kabi davlatlar futbol infratuzilmasiga milliardlab dollar investitsiya kiritib, kuchli legionerlarni jalb qilish orqali futbol saviyasini oshirishga erishmoqda.

O'zbekiston ham zamonaviy infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali futbolni rivojlantirishga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda futbol klublarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish uchun xususiylashtirish, tijoratlashtirish va markazlashgan moliyaviy mexanizmlarni joriy etish zarurdir. Xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish orqali klublarning moliyaviy mustaqilligiga erishish, tijorat yo'nalishlarini rivojlantirish orqali daromad manbalarini kengaytirish va markazlashgan moliyalashtirish tizimi orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekiston futboli xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lib, moliyaviy barqarorlikka erishadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2019-yildagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son farmoni.
2. UEFA va FIFA moliyaviy tartib-qoidalari.
3. Angliya Premyer Ligasi va Ispaniya La Ligasi klublarining moliyaviy hisobotlari.
4. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining (O'FA) rasmiy statistik ma'lumotlari.